



TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ISSN: 2992-9083

O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



TDIU, Islom Karimov 49, 100066, Toshkent



<https://insurance.tsue.uz>

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo‘jayevich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (“O‘zbekinvest” eksport-import sug‘urta kompaniyasi” AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To‘lovlarni kafolatlash jamg‘armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash kafedrasini mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.).
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A‘zamjonovich (“Kafil Sug‘urta” AK sug‘urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O‘zbekiston madaniyat va san‘at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU “Moliya bozori va sug‘urta” kafedrasini mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutalova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU “Soliqlar va soliqqa tortish” kafedrasini professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU Magistratura bo‘yicha dekan o‘rinbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasini professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU “Marketing” kafedrasini dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo‘latovich (TDIU “Sug‘urta” kafedrasini dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasini dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYALASH BORASIDA DAVLAT TIBBIY SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKILOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKISTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



SANOAT TARMOQ'INING IQTISODIY SALOHİYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR

Kasimov Azamat Abdukarimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Yashil" iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.d. (DSc)

a.kasimov@tsue.uz

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/273

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat tarmog'i iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi omillar va ularni baholashning ekonometrik yondashuvlari batafsil yoritib berilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashirishning tasnifi hamda sanoat ishlab chiqarishni tahlil qilish mexanizmi ishlab chiqilgan. Shuningdek, sanoat tarmog'i salohiyatini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va uni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari taklif etilgan.

Kalit so'zlar: sanoat, iqtisodiy-matematik ulullar, ekonometrik model, tahlil, omil, iqtisodiy rivojlanish, prognoz.

Abstract: This article provides a detailed overview of the factors representing the economic potential of the industrial sector and the econometric approaches used to assess them. A classification of econometric modeling of socio-economic processes and a mechanism for analyzing industrial production are developed. The article also proposes priority directions for improving economic indicators and further development in assessing the potential of the industrial sector.

Keywords: industry, economic-mathematical methods, econometric model, analysis, factor, economic development, forecast.

Абстрактный: В данной статье подробно раскрываются факторы, отражающие экономический потенциал промышленного сектора, и эконометрические подходы к их оценке. Разработана классификация эконометрического моделирования социально-экономических процессов и механизм анализа промышленного производства. Также предложены приоритетные направления совершенствования экономических показателей и дальнейшего развития при оценке потенциала промышленного сектора.

Ключевые слова: промышленность, экономико-математические методы, эконометрическая модель, анализ, фактор, экономическое развитие, прогноз.

Kirish (Введение/ Introduction)

Iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlash jumladan, sanoat tarmoqlari iqtisodiy salohiyatini oshirish, aholi turmush tarzini tubdan yaxshilash kabilarni nazariy jihatdan tadqiq etish keng qamrovli va haqqoniy statistik ma'lumotlarni talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli Qarori [1] statistika tizimini yaratish bo'yicha chora-tadbirlarni izchil davomi sifatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanadigan statistik ma'lumotlarni yig'ish, to'plash, saqlash, qayta ishlashni yangi bosqichga olib chiqish uchun meyoriy-huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, mazkur qaror bilan "2020-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi statistikasini rivojlantirishning Milliy strategiyasi" tasdiqlandi.

Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va baholashda haqqoniy, mukammal axborot bazasiga ega bo'lish hamda foydalanish imkoniyatini oshirib, real iqtisodiy salohiyatni baholash sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'lida belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirish, islohotlarni davom ettirish va iqtisodiy muvozanatni ta'minlash hamda iqtisodiyotning asosiy yetakchi sohalari jumladan, sanoat tarmoqlarini modernizatsiya va diversifikatsiyalash, shuningdek logistika va axborot-kommunikatsiya infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bunda, ichki manbalarni to'g'ri yo'naltirish va ulardan samarali foydalanish asosida sanoat tarmoqlarini jadal rivojlantirish hamda transport infratuzilmasini yaxshilash talab etiladi.

Iqtisodiy tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sanoat korxonalarining investitsion faoliyatini yanada jonlantirish, xorijiy

investitsiyalarni to'g'ridan-to'g'ri keng jalb qilish va ulardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirish, yangi ish o'rinlarini shakllantirish va shular asosida milliy iqtisodiyotning barqaror va dinamik rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish, tahlil qilish hamda iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish modellarini ishlab chiqish lozim.

Adabiyotlar sharhi (Обзор литературы/Literature review)

Fikrimizcha, modellashirish quyidagi ikki muhim jihatga ega:

1) Iqtisodiy qonuniyatlarni aniqlash va ularni amaliyotda qo'llashning eng samarali va tejimli usullarini topishga imkon beradi.

2) Murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ham kompyuter dasturlari orqali matematik ifodalash va aniq tahliliy natijalar olish mumkin bo'ladi.

Dunyoning rivojlangan davlatlarida ham sanoat ishlab chiqarish jarayonlari va sanoat tarmoqlari samaradorligini oshirishga doir iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellashirish usullaridan keng foydalanib kelinadi. Jumladan, Rossiya va boshqa MDH mamlakatlarida ishlab chiqarish jarayonlaridagi miqdorlar o'rtasidagi munosabatlarni, masalan korxonada muayyan muddatda ishlab chiqarish hajmining o'sishi ish haqi o'sishidan orqada qolishi, sanoat chiqindilari miqdorining o'sishi, energiya iste'molining oshishi, boshqa ishlab chiqarish xarajatlarning ortishi kabilarni chiziqli va chiziqsiz usullar orqali modellashirilib, provardida moddiy, moliyaviy va vaqt sarflarini kamaytirish muammolarini aniqlash yoki ularni bartaraf etish hamda ishlab chiqarishni optimallashtirish va turli xil variantlardan eng oqilona echimni tanlashga erishildi.

Xuddi shunday yo'nalishlardan Osiyo mintaqasidagi davlatlardan Xitoy xalq Respublikasi, Janubiy Koreya, Yaponiya, Singapur, Yevropa mamlakatlaridan Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Ispaniya, Daniya, Norvegiya, Shvetsiya, Shvetsariya kabilarni, shuningdek AQSH, Kanada, Avstraliya va boshqa davlatlarda ham keng qo'llaniladi va bu borada

tadqiqot ishlari olib boriladi. Shuningdek, Angliya, Fransiya, Germaniya, AQSH kabi davlatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasini rivojlantirish asosida to'g'ridan-to'g'ri global bozorga chiqishning yangi modellari va global raqobatdoshlikning innovatsion biznes modellari ishlab chiqilgan hamda amaliyotga joriy etilmoqda [2].

Bugungi sharoitda global strategiyadan boshlangan kichik va o'rta korxonalar (SME) transchegaraviy faoliyatdan foydalanish uchun tezda harakat qilishlari mumkin [3]. Globallashuv nafaqat daromadlarning o'sishi, balki bilimlar almashinuvi va imkoniyatlarni oshirish uchun ham imkoniyatlar yaratadi. Demak, uzoq muddatli istiqbolda xalqaro kompaniyalar raqobatbardosh bo'lishadi.

Zero, har bir davlatning jahon hamjamiyatidagi o'rni va salohiyati – uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Buning uchun esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o'ziga xos mexanizmlarini joriy etish orqali erishish mumkin. Mazkur mexanizmlar birinchi navbatda iqtisodiyot tarmoqlarining, xususan sanoatning moddiy-texnik va kapital resurslariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi, tarmoqlararo tarkibiy qayta qurishni samarali amalga oshirish shuningdek, oqilona investitsiya siyosatini yuritishni qamrab olishi muhim.

Mamlakatning iqtisodiy tizimini rivojlantirish uning ishlab chiqarish, mehnat salohiyati, ishlab chiqarish kuchlarining samarali joylashuvi, aholining turmush darajasi hamda mahalliy boshqaruv organlari faoliyati samaradorligiga bog'liq. Jahon tajribasi va amaliyoti ham har bir hududning xomashyo bazasi va mehnat salohiyatidan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lgan muammolarini faqat o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan dasturlar va istiqbolli rejalar orqaligina hal etish mumkinligini ko'rsatmoqda [4].

Iqtisodiy o'sishda omillar tizimi katta rol o'ynaydi. Lekin, bunda hamma omillarning jamlangan ta'siri har birining ta'sir etish darajasi yig'indisiga teng degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Omillar tizimi – bu ularning oddiy arifmetik yig'indisi bo'lmasdan, balki bunda ichki bog'lanishlar va tarkibiy elementlarning o'zaro bir-biriga bo'lgan ta'sirini ham hisobga olish lozim [5].

Bugungi kunda, turli iqtisodiy hodisalar, jarayonlarni o'rganish va baholash uchun iqtisodiy-matematik modellardan keng foydalaniladi. Bunday modellarni tuzishda tadqiq etilayotgan hodisalarni ifodalovchi eng muhim omillar aniqlanadi va qo'yilgan muammoni yechish uchun ahamiyatsiz bo'lganlari hisobdan chiqariladi [6].

Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlarini rivojlantirish va iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun ishlab chiqarish majmualarining rivojlanish tendensiyalarini prognoz qilish, real sektorlarda maqsadli tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini tanlashga qaratilgan mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining optimal modellari shakllantirish lozim [7]. Shuningdek, sanoat tarmoqlarida foydalanilayotgan resurslar samaradorligini oshirish, mavjud muammolarni yechishda yuzaga keladigan xatarlarni oldindan ko'ra bilish va ilmiy asoslangan chora-tadbirlar yohud yechimlar ishlab chiqish talab qilinadi [8]. Qolaversa, sanoat tarmoqlarining barqaror o'sishi va global raqobatbardoshlikka erishishini ta'minlashni har tomonlama tahlil qilish, shuningdek ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lgan omillarning miqdoriy bog'lanishini baholash va tarmoqlarni rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda iqtisodiy-matematik, ekonometrik modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Методы/Methods)

Mazkur tadqiqotda sanoat tarmog'i iqtisodiy salohiyatini ifodalovchi omillar va ularni baholashning ekonometrik yondashuvlari va usullari nazariy jihatdan ifodalgan. Ekspert baholash, analitik taqqoslash, mantiqiy fikrlash va mushohada usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, mazkur mavzuga oid xorijiy va mahalliy olimlarning tadqiqotlari tahlil qilinib, ularning ilmiy qarashlari o'rganilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi (Анализ и результаты/Analysis and results)

Tahlillarga ko'ra, sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarga mantiqiy va iqtisodiy jihatdan qaraganda ularning bir-biriga bog'liqligi va ta'sir etish darajasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin. Jumladan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasiga bevosita ta'sir etuvchi omillar sirasiga moliyaviy va moddiy-texnik resurslar, mehnat resurslari, xomashyo bazasi va boshqa omillarni kiritish mumkin. Ammo, sanoat tarmoqlari rivojlanishi murakkab va uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Shu boisdan, bu jarayonga bevosita va bilvosita hamda turli darajada ta'sir ko'rsatadigan

ko'plab omillar mavjud. Masalan, institusional boshqaruv xususiyatlari, geografik joylashuv, ekologik imkoniyatlar, innovatsion salohiyati, xomashyo va tabiiy resurslar, mehnat resurslarining intellektual imkoniyatlari, transport hamda bozor infratuzilmalarining rivojlanganlik darajalari va boshqalar. Mazkur omillarning o'zaro bog'liqligini ifodalovchi sanoat tarmoqlarining rivojlanish mexanizmi ko'rinishida quyidagicha tasvirlash mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakatda institusional boshqaruv xususiyatlari davlatning geografik joylashuvi va ekologik imkoniyatlariga ham bog'liqdir. Davlatning geografik joylashuvi esa tabiiy resurslar zaxirasi va transport infratuzilmasi qulayligini belgilaydi hamda bozor infratuzilmasi rivojlanish darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Sanoat tarmoqlari samaradorligi ko'p jihatdan uning innovatsion salohiyati, moliyaviy imkoniyatlari, investitsion jozibadorligi, moddiy-texnik bazaning shakllanganligi va ichki-tashqi iste'mol darajasiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat tarmog'ini rivojlantirish bo'yicha taklif etilayotgan mexanizmi amalga oshirishda quyidagi bosqichlarni taklif etish mumkin:

1-bosqich, davlatda institusional boshqaruv tizimining shaffofligi va haqqoniylik darajasini oshirish;

2-bosqich, xalqaro savdo koridorini yanada rivojlantirish maqsadida moliyaviy erkinlikni kengaytirish va tashkiliy-ma'muriy jarayonlarni yanada soddalashtirish;


3-bosqich, zamonaviy texnologik logistika infratuzilmasini barpo etish va mavjud tizim (transport yo'llari) holatini yaxshilash;

4-bosqich, tabiiy va mavsumiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari kabilar) xom ashyo bazasidan samarali foydalanishni kuchaytirish uchun ko'p tarmoqli sanoat klasterlarini tashkil etish;

5-bosqich, tadbirkorlik subektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash (subsidiyalar ajratish, davlat dasturlari asosida moliyalashtirish va kreditlash) jarayonlarining shaffofligini ta'minlash hamda ularni bozor mexanizmlariga tayangan holda amalga oshirish va boshqalar.

Sanoat tarmog'ini rivojlantirishning optimal modelini yaratishda, ayniqsa hozirgi noaniqlik va tavakkalchilik sharoitida iqtisodiy jarayonlarni o'rganish va tahlil qilish uchun iqtisodiy-matematik usullar hamda ekonometrik modellardan foydalanish kutilishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarini oldini olish imkonini beradi [9].

Shunga ko'ra, sanoat ishlab chiqarishga ta'sir qiluvchi omillar ta'siri samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlar, shuningdek tavakkalchilik va noaniqlik munosabatlariga mos dinamik modellar asosida o'rganish ilmiy-nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, iqtisodiy qonuniyatlarga asoslangan nazariy jihatdan iqtisodiy modellar konsepsiyasi mavjud bo'lib, ushbu modellar iqtisodiyotning muayyan sektori bilan bog'liq statistik ma'lumotlarni umumlashtirish va mavhum ko'rsatkichlarni aks ettirgan holda natijani bayon etish imkoniga egadir. Aynan shuning uchun ham iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda ayrim o'zgaruvchi qiymatlar asosida boshqa o'zgaruvchan qiymatlarni aniqlash uchun yaratilgan iqtisodiy-matematik modellar keng qo'llaniladi (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modelashtirish tasnifi

Iqtisodiy-matematik usul va modellarning maqsadi iqtisodiy tahlil yo'nalishlarini takomillashtirish, turli iqtisodiy jarayonlar o'rnatidagi bog'lanish va o'zgarishlarni miqdoriy ko'rsatkichlar bilan ifodalash hamda o'zgarish tendensiyalarini aniqlash asosida iqtisodiy tahlil samarasini oshirishdan iborat.

Iqtisodiy-matematik usul va modellar (1-rasm) orqali iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilish, prognozlashtirish, rejalashtirish va boshqaruv yechimlarini optimallashtirishning afzalligi shundaki, unga ta'sir qiluvchi omillarni to'la qamrab olishi va ulardan eng asosiylarini ya'ni, natijaga ta'siri yuqori bo'lgan omillarni ajratib, avvalgi tarkibiy hisob-kitoblarni aniq hisoblar bilan almashtirish, ko'p o'lchamli masalalarni tuzish va yechish, qo'lda amalga oshiriladigan murakkab hisob-kitoblarni kompyuterlarda oson va aniqroq amalga oshirishga imkon yaratadi.

Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlari sanoat tarmog'ini tahlil qilishda ISIC (International Standard Industrial Classification) xalqaro sanoat standarti tasnifi mezonlaridan keng foydalanib kelmoqda. Mazkur mezonlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan yoki ta'minotga asoslangan konseptual asosga tayangan bo'lib, unda ishlab chiqarishni tashkil etish, ishlab chiqarish jarayoni va texnologiyasi, shuningdek mahsulot va undan foydalanish xususiyatlari kabi ko'rsatkichlar hisobga olinadi. Bundan tashqari, yangi buyurtmalar, narxlar va bandlik ko'rsatkichlari ham e'tibordan chetda qolmaydi.

Sanoat tarmoqlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy va mehnat resurslari, asosiy vositalar kabilar tashkil etsa, uning ijtimoiy barqarorlikni baholashda ba'zi iqtisodchilar [10] o'rtacha ish haqi va xodimlar uchun uzluksiz ta'limning mavjudligi kabi ko'rsatkichlardan foydalanish maqsadga muvofiq deb, hisoblashadi.

Umuman olganda har qanday iqtisodiy ko'rsatkichlar va ularni tahlil qilish – kelgusidagi natijalarni prognoz qilish va sohaning rivojlanish istiqbollarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar har xil iqtisodiy jarayonlarning miqdor va sifat jihatidan raqamlarda aks ettirib, u turli vaqt oralig'idagi ma'lumotlar, muddatli hisobotlar, iqtisodiy xulosalar va boshqalarni o'z ichiga oladi.

Sanoat tarmoqlari rivojlanish holatini iqtisodiy tahlil qilish va baholash – statistik ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, moliyaviy holat, mehnat resurslaridan fodalalanish darajasi, kapitalning taqsimlanishi, ishlab chiqarish jarayonining resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash, shuningdek texnik va iqtisodiy samaradorlikni baholash asosida amalga oshiriladi.

Sanoat ishlab chiqarishni tahlil qilish mexanizmi sanoat tarmoqlari holatini tahlil qilishning soddalashtirilgan uch bosqichli tizim bo'lib, unga ko'ra:

birinchi bosqichda, sanoat tarmoqlarini moliyaviy-iqtisodiy holatidan kelib chiqib, ular ikki guruhga ajratiladi va har bir guruh bo'yicha ishlab chiqarish jarayonlariga obektiv va subektiv ta'sir ko'rsatuvchi omillar o'rganiladi. So'ngra mazkur omillarning ishlab chiqarishga ta'siri ekonometrik model va usullar yordamida baholanadi;

ikkinchi bosqichda, sanoat tarmog'i, kompleks yoki korxonaning moliyaviy holati tahlil qilinib, ishlab chiqarish jarayonini qo'shimcha moliyalashtirish manbalari va imkoniyatlari o'rganiladi;

uchinchi bosqichda esa sanoat ishlab chiqarish jarayonlarining boshqaruv va tashkiliy jarayonlari o'rganiladi hamda uni yanada rivojlantirish uchun bugungi kunda dolzarb bo'lgan raqamli texnologiyalarni joriy etilganligi, zamonaviy personalni shakllantirishning yo'lga qo'yilganligi va ilm-fan yutuqlaridan foydalanilgan holda innovatsion harakatlarning mavjudligi kabi tashkiliy jihatlarini tahlil ko'rib chiqiladi.

Fikrimizcha, yuqoridagilar optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish va kelgusidagi istiqbollarni belgilash hamda ishlab chiqarish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim dasturiy amal bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar (Заключение/Conclusion)

Yuqoridagilardan kelib chiqib, sanoat tarmog'i salohiyatini baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilash va uni yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilashda quyidagilarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq:

1. Iqtisodiy o'sishning muhim manbasi sifatida sanoatning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli vazifalarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish va ijrosi ustidan qat'iy nazorat o'rnatish.

2. Investitsiyalar dasturini takomillashtirish va ularni avvalo, ustuvor sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga yo'naltirish lozim.

3. Mamlakat jahon savdo tizimiga kirib borishi xorijiy sanoat mahsulotlari uchun ichki bozorni ochishni va raqobatni kuchaytirishni o'z ichiga oladi. Shu boic, bunday sharoitda sanoat korxonalarining nafaqat omon qolishi, balki jahon savdo tizimiga kirishi va muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish.

4. Sanoat tarmoqlari o'rtasida investitsiyalar, mehnat resurslari va boshqa resurslar uchun raqobatning kuchayishi sharoitida rivojlanishi sust bo'lgan tarmoqlarni (korxonalarni) rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Aksariyat hollarda iqtisodiy faollikni oshirish bo'yicha tadbirlar o'rta va uzoq muddatli strategiya yoki dasturlarning bir qismi sifatida qolib ketmasligini ta'minlash.

6. Sanoat tarmoqlarida ilm-fan yutuqlari va ilg'or texnologiyalar, jumladan raqamli iqtisodiyot blokcheynlarini keng joriy etish.

7. Yirik sanoat korxonalarining o'zida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda hodimlarni qayta tayyorlash va ularga kasbiy axborot-konsalting xizmatlarini ko'rsatishni tashkil etish.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmog'ining iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida samarali iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish, moddiy-texnik bazani modernizatsiyalash, moddiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish va optimal boshqaruvni tashkil etish orqali ustuvor tarmoqlarni, shu bilan birga rivojlanishi sust bo'lgan korxonalarni yoki yangi sanoat korxonalarini barqaror rivojlanishida davlat rolini oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-4926736>
2. Мадых А.А., Охтенъ А.А., Дасив А.Ф. Экономико-математическое моделирование смарт-предприятий: мировой опыт и перспективы // Экономика и бизнес. -№2. 2018. – 130-142 с.
3. Алиева Г.Э. Проблема интернационализации российского бизнеса // Молодой ученый. - 2021. - № 1 (343). - С. 167-173.
4. Abdullayev I.S., Ruzmetov B. Hududiy iqtisodiy tizimni rivojlanishini prognozlashning kompleks sonli ekonometrik modellari. Monografiya. Toshkent "Lesson Press", 2017. – 14 b.
5. Thomas R.L. Modern econometrics. - England.: Manchester Metropolitan University, 1998. – 211 p.
6. Alimov R.X. va boshq. Korxonalarda investitsiyalardan samarali foydalanish jarayonlarini ekonometrik modellash. O'quv qo'llanma. T.: "Fan va texnologiya", 2014. – 10 b.
7. Гатауллин Р.А. Оценка эффективности производственного потенциала промышленного комплекса региона. Диссертация кандидата экономических наук. Ижевск, 2008. – 167 с.
8. Qosimov A. A. Statistical forecasts of the economic potential of industry of the surkhondaryo region and the prospects of its further development //The American journal of management and economics innovations. – 2020. – T. 2. – №. 11. – С. 1-15.
9. Ro'zmetova N. va boshq. Matematik modellash. O'quv qo'llanma. –T.:TDIU, 2013. – 123 b.
10. Пухова Ю.И. Методические особенности оценки устойчивого развития промышленных предприятий // Master's journal. -№2, 2015. – 332 с.